



**ЎЗБЕКИСТОН
РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ**



**ТОШКЕНТ МОЛИЯ
ИНСТИТУТИ**



**ЎЗБЕКИСТОН
РЕСПУБЛИКАСИ
МОЛИЯ ВАЗИРЛИГИ**

**“БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ВА
АУДИТОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ ХАЛҚАРО
СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ
ЭТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ”**

***МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
АНЖУМАНИ***

Тошкент 2021 йил, 21 май



«Бухгалтерия ҳисоби ва аудиторлик фаолиятини халқаро стандартлар асосида ташкил этишнинг долзарб масалалари» мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами., Тошкент 2021 йил, 804 б.

Ушбу республика илмий-амалий конференция тўпламида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 25 февралда «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги ПҚ-677 сонли ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4611 сонли Қарорида белгилаб берилган вазифалар ижросини таъминлашга қаратилган масалалар, жумладан, аудит, бухгалтерия ҳисоби, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари, иқтисодий таҳлил ҳамда рақамли иқтисодиётга ўтиш даврида қилинадиган ишларга бағишланган илмий мунозара асосида хулосалар билан бойитилган мақола ва тезислар жой олган.

Таҳрир ҳайъати раиси:

Тешабаев Т.З. – и.ф.д., проф.

Таҳрир ҳайъати аъзолари:

Тўйчиев А.Ж. - и.ф.д., проф.

Мехмонов С.У. - и.ф.д., проф.

Қўзиёв И.Н. - и.ф.д., проф.

Авлоқулов А.З. - и.ф.д., проф.

Машарипов О.А. – и.ф.н., доц.

Абдиева Н.Ш. - PhD, доц.

Хожиёв М.С. – PhD, доц.

Авазов И.Р. – PhD.

Хамидова З.У. – PhD.

Тақризчилар:

Ризаев Н.К. – и.ф.д., проф.

Хажимуратов Н.Ш. - PhD, доц.

Мазкур тўпламга киритилган материалларнинг мазмуни, ундаги келтирилган маълумотлар ва меъёрий ҳужжатларнинг тўғрилигига ҳамда келтирилган мустақил фикр-мулоҳазалар учун муаллифларнинг ўзлари масъулдирлар.

КИРИШ СЎЗИ

Тешабаев Тўлқин Закирович
Тошкент молия институти
Ректори, профессор

Ассалому алайкум, ҳурматли конференция катнашчилари!

Ўзбекистон иқтисодиётини жадал ривожлантириш ва либераллаштириш, жаҳон молия бозорига интеграциялашувини тезлаштириш ва капитал бозорини ҳамда рақамли иқтисодиётни янада ривожлантириш, замонавий корпоратив бошқарув принципларини жорий этиш энг муҳим устувор вазифалар ҳисобланади.

Иқтисодиётнинг бу йўналишини уз вақтида амалиётга татбиқ етган давлатлар ривожланиб, эскича тартиб ва усулларда ишлашни давом эттираётган тараққиётдан орқада қолмоқда.

Чунки рақамли иқтисодиёт бу бугунги кунда жаҳон иқтисодиётининг драйвери, ривожланиш белгиларидан биридир.

Ҳурматли, конференция иштирокчилари. Ҳар бир соҳада рақамлаштиришнинг ўз ўрни бшлгани каби бухгалтерия ҳисоби ва аудит соҳаси ҳам албатта мазкур жараённинг бевосита объектига айланди.

Мазкур масалаларни ҳал этишда аудиторлик фаолиятини халқаро миқёсидаги аудит ривожланишининг замонавий тенденцияларига мувофиқлигини таъминлаш, аудиторлик фаолиятида аудитнинг халқаро стандартларини жорий этиш орқали аудитни халқаро масштабда бирхиллаштиришни таъминлаш, шунингдек, аудиторлик текширувидан ўтадиган корхоналарда корпоратив бошқарувнинг замонавий тизимини жорий этиш, мазкур корхоналарни ишончли аудиторлик хулосалар билан таъминлаш муҳим ҳисобланади.

Республикамизда бухгалтерия ҳисоби ва аудит соҳасига алоҳида эътибор берилиб, сўнгги йилларда бир қатор ижобий ишлар амалга оширилмоқда.

Замонавий талаблар ва аудитни тартибга солиш соҳасидаги текширилган халқаро амалиёт принципларига асосланган⁴ аудиторлик фаолиятини тартибга солишнинг самарали ташкилий-ҳуқуқий механизмини яратиш, аудиторлик фаолиятини тартибга соладиган қоида ва нормаларни ҳамда меъёрий ҳужжатларни ягона норматив-ҳуқуқий ҳужжатда

унификациялаш ва тизимлаштириш мақсадида Олий Мажлис Қонунчилик палатаси томонидан 2020 йил 10 ноябрда қабул қилинган, Сенат томонидан 2021 йил 5 февралда маъқулланган Ўзбекистон Республикасининг “Аудиторлик фаолияти тўғрисида”ги ЎРҚ-677-сонли Қонуни 2021 йил 25 февралда қабул қилинди.

Мазкур Қонун ижросини таъминлаш мақсадида Тошкент молия институти томонидан бухгалтеря ҳисоби ва аудит соҳасида масофавий таълим ва мустақил ўқишни ташкил этишни назарда тутадиган инновацион педагогик ва ахборот коммуникация технологияларни таълим тизимида жорий этиш ишлари олиб борилди.

Бугунги халқаро илмий-амалий конференция айнан бухгалтерия ҳисоби ва аудитнинг рақамли иқтисодиётга ўтиш даврида халқаро стандартларга мувофиқлаштириш масаласига қаратилган.

Ўйлайманки, бугунги конференцияда кўриладиган масалалар, муаммолар ва уларнинг ечимига қаратилган хулоса ва таклифлар соҳанинг янада ривожланишига ва рақамлаштирилишига хизмат қилади.

Конференция иштирокчиларини яна бир бор табриклаб, конференция ишига муваффақият тилайман.

**I-ШЎБА.
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ
ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ,
ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТНИ
АҲАМИЯТИ**



XO‘JALIK YURITUVCHI SUB‘EKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI AUDITINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
“Moliyaviy tahlil va audit”
kafedrasi tayanch doktoranti
Omanov Sanjar Qurbonazar o‘g‘li

Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari deb, mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlarga aytiladi. Ularga xom-ashyo, material, yoqilg‘i, amortizatsiya ajratmasi, ishchi-xizmatchilarga ish haqi va mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar kiradi.

Agar bir xil mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlarning jami summasini ishlab chiqarilgan mahsulot soniga taqsimlasak, ishlab chiqarilgan bir birlik mahsulotning tannarxini topamiz. Tannarx ko‘rsatkichi korxonada faoliyatida muhim sifat ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. U qancha, past bo‘lsa, ishlab chiqarish rentabelligi shuncha yuqori bo‘ladi. Tannarxga korxonaning hamma xarajatlari qo‘shilmaydi, ba‘zi xarajatlari boshqa manbalar hisobidan qoplanadi. Masalan, foyda hisobidan davr xarajatlari qoplanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari xarajat kalkulyatsiya moddalarini bo‘yicha ishlab chiqarish turlari, xarajatlarning vujudga kelish joylari, mahsulot turlari bo‘yicha buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Xarajatlarni hisobga olish hamda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishdan asosiy maqsad ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq xarajatlarni o‘z vaqtida, to‘laligicha va haqqoniy aniqlash, shu bilan birga ayrim mahsulotlarning haqiqiy tannarxini hisoblash hamda korxonada resurslari va pul mablag‘lari ishlatilishi ustidan nazoratni o‘rnatishdan iborat.¹⁴¹

"Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida"gi¹⁴² Nizomning qabul qilinishi mamlakatimiz buxgalteriya hisobida tubdan o‘zgarishlar bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ushbu Nizom xarajatlarning mohiyati, korxonaning hisobot davridagi foydasi bilan bog‘liqligidan kelib chiqib taqsimlashni belgilab berdi. Xarajatlar hisobining aynan shu tizimga yaqinlashtirilishi bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobi bajarishi kerak bo‘lgan vazifalardan kelib chiqdi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqobatli kurash ketmoqda va ushbu kurashdagi asosiy vositalaridan biri bo‘lib mahsulot tannarxini pasaytirish hisoblanmoqda. Ammo, xarajatlarni pasaytirish bo‘yicha ma‘muriy

¹⁴¹ Fayziyev Sh., Dustmuradov R. va b. Audit. Darslik. –T. Iqtisod-Moliya, 2015 y. 536 b.

¹⁴² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi 54-son qarori bilan tasdiqlangan nizom.

choralarga o'tishdan oldin ularni to'g'ri hisoblash va mahsulot turlari o'rtasida taqsimlash talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining har bir vazirliklari, idoralari, davlat organlari va xo' alik boshqaruvlari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo'mitasi, Moliya vazirligi va Davlat Soliq Qo'mitasi bilan kelishilgan holda mazkur Nizom asosida xarajatlar tarkibini hisobga olish xususiyatlarini aniqlab oladilar.

Nizom quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- korxonada faoliyatining samaradorligini aniqlash va bozorda raqobatdoshligini aniqlash uchun buxgalteriya hisobi schetlarida mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonida vujudga kelgan barcha xarajatlar to'g'risidagi aniq va to'liq axborotni shakllantirish;

- soliqqa tortiladigan bazani to'g'ri aniqlash.

Nizomga asosan barcha xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq davr xarajatlari guruhiga kiritiladigan xarajatlar;


- «Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar» schetlarining bevosita debetida hisobga olinadigan korxonaning moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlari;

Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar tannarxini hisoblashni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishdan maqsad sodir bo'lgan xo' alik muomalalarini hisobga olish va soliqqa tortishda qo'llanilayotgan tartibning O'zbekiston Respublikasi me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Auditor xarajatlar tarkibini batafsil tahlil qilib chiqishi uchun har bir xarajat guruhidagi iqtisodiy elementlarni tekshirib chiqishi lozim.

Shunday qilib, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar mahsulot tannarxiga qo'shiladi. Bu o'z navbatida, ishlab chiqarish xarajatlari hisobi bo'yicha quyidagi vazifalarni hal etish imkoniyatini beradi.

Ishlab chiqarishga qilingan haqiqiy xarajatlarni o'z vaqtida, to'liq va ishonchli aks ettirish, har bir mahsulot va xizmatlar haqiqiy tannarxini kalkulyatsiya qilish, shuningdek moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni tejash va oqilona foydalanish ustidan nazorat qilish.



rasm. “Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom” ga muvofiq barcha xarajatlar guruhlanishi.¹⁴³

Mehnat unumdorligini oshirish, xomashyo va material, yoqilg‘i va elektroenergetika xarajatlarini kamaytirish, xizmat ko‘rsatish va boshqarish sarflarini qisqartirish, ishlab chiqarishdan tashqari, xarajatlarni tejash sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirishning eng muhim manbalari hisoblanadi.

Mehnat unumdorligini oshirish uchun yangi texnika, texnologiya jarayonlarini va ishlab chiqarishni o‘stirish yoki tashkil etishning ilg‘or usullarini joriy qilish orqali har bir mehnatchi tomonidan tayyorlanayotgan mahsulotni ko‘paytirish kerak bo‘ladi. Bu holda har bir mahsulot birligiga sarflanadigan ish haqi qisqaradi, ammo ishchining umumiy ish haqi esa ortib boradi. Mehnat unumdorligi ish haqiga nisbatan jadal o‘sgandagina tannarx pasayadi.

Shunday qilib, xarajatlarni hisobga olish ham moliyaviy hisobning, ham

¹⁴³ Muallif tomonidan shakllantirilgan.

boshqaruv hisobining eng muhim qismlaridan biri ekan. Mana shu asosda xara- jatlar hisobi oldidagi vazifalarni aniqlash mumkin.

Demak, yuqorida aytilgan fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, xarajatlar va tannarx bilan samarali boshqarishga amaliy jihatdan boshqatdan o‘rganish va bu boradagi muammolarni ochib berish hozirgi kundagi dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR INVENTARIZATSIYASINI O‘TKAZISH XUSUSIYATLARI

*O.Nizomov
Tadqiqotchi*

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tovar-moddiy zaxiralari hisobini to‘g‘ri yuritish, ularning tannarxini to‘g‘ri shakllantirish kabi bir qancha masalalar shu kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish va pirovardida, mahsulot tannarxini kamaytirish orqali yuqori samaradorlikka hamda moliyaviy barqarorlikka erishish mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatni amalga oshirishda sarflanadigan tovar-moddiy zaxiralardan foydalanishni nazorat qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlara tovar-moddiy zaxiralarning kirim qilinishi, to‘g‘ri saqlanishi, harakati va maqsadli sarflanishini nazorat qilish uchun ular bo‘yicha inventarizatsiya o‘tkaziladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni balansga kirim qilish quyidagi ikkita bahoning eng pasti bo‘yicha - balans tuzilayotgan sanadagi haqiqiy tannarx (sotib olish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi) bo‘yicha yoki bozor bahosi (realizatsiya qilishning sof qiymati) bo‘yicha amalga oshiriladi¹⁴⁴.

Tovar-moddiy zaxiralar boshlang‘ich hujjatlar asosida tannarx ko‘rinishida kirim qilinadi. Bunda, kirim qilish bilan bog‘liq xarajatlar tovar-moddiy zaxiraning tannarxiga qo‘shiladi. Ushbu jarayonda kirim qilinayotgan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha boshlang‘ich hujjat ma‘lumotlari bilan haqiqatdagi holat (tovar-moddiy zaxiralarning soni va sifati) solishtiriladi. Tovar-moddiy zaxiralar kirim qilingach foydalanishga berilgunga qadar omborda saqlanadi. Tovar-moddiy zaxiralarning kirim qilinishi, to‘g‘ri saqlanishi va sarflanishini nazorat qilish uchun tashkilot ombori inventarizatsiyadan o‘tkaziladi.

Tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha inventarizatsiya “Inventarlashni tashkil

¹⁴⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni, 17-modda (2016 yil 13 aprel, O‘RQ-404-son)

<i>А.Козимжонов.</i> ҚАРЗ МАЖБУРИЯТЛАРИ БЎЙИЧА КАПИТАЛИЗАЦИЯ ҚИЛИНАДИГАН ХАРАЖАТЛАРНИ УСЛУБИЙ ЖИХАТДАН ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.....	300
<i>З. Хамидова, Б. Фуломов.</i> КОРХОНАЛАРДА ВУЖУДГА КЕЛГАН МУАММОЛАРНИ ХАЛ ЭТИШДА ЯНГИЧА ИЧКИ АУДИТ ВА РАҚАМЛАШТИРИШ УСУЛИ.....	303
<i>Н.М. Имамова.</i> МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИГА ЎТИШ ЗАРУРАТИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ	306
<i>К.Н. Abdullayev.</i> ИСНКІ AUDITORLIK FAOLIYATINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH VA USTUVOR YO'NALISHLARI.....	309
<i>И. Авазов.</i> КОНСОЛИДАЦИЯЛАШГАН МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ ТУЗИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	311
<i>S.Q. Otanov.</i> XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA ISHLAB CHIQA-RISH XARAJATLARI AUDITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	315
<i>O.Nizomov.</i> TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR INVENTARIZATSIYASINI O'TKAZISH XUSUSIYATLARI	318
<i>З.У. Ганиев.</i> ЎЗБЕКИСТОНДА АУДИТОРЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.	320
<i>М.А. Абдураимова, Ш.Б. Турсунов.</i> АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРИДА ИЧКИ АУДИТНИ ТАШКИЛ ЭТИШ АСОСЛАРИ.....	324
<i>К.Б. Уразов.</i> ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТУЗИЛГАН МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИ ТЕКШИРИШ ВА УНГА АУДИТОРЛИК ХУЛОСАСИНИ БЕРИШНИНГ АЙРИМ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ	327
<i>М.П. Оромидинов.</i> БУЮК БРИТАНИЯНИНГ ИЧКИ АУДИТ ХИЗМАТИ ВА УНИНГ ЮТУҚЛАРИНИ РЕСПУБЛИКАМИЗ АМАЛИЁТИДА ФОЙДАЛАНИШ ЖИХАТЛАРИ.....	330
<i>Д.Э. Норбеков.</i> МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ТЎҒРИСИДАГИ ҲИСОБОТ АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	333
<i>З.Қ. Сабирова.</i> ЎЗБЕКИСТОНДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИГА ЎТИШДАГИ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАР	335
<i>А.Н. Тўраев, Т. Жумақулов.</i> МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИ МХҲСГА ТРАНСФОРМАЦИЯ ҚИЛИШ ТАРТИБИ	339
<i>Ғ.Д. Ташманов.</i> ИЧКИ АУДИТ ХИЗМАТИ ФАОЛИЯТИНИ ЮРИТИШДА ХАЛҚАРО ТАШКИЛОТЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ ВА УЛАРНИНГ МАЖБУРИЯТЛАРИ.....	343
<i>А.Х. Хотамов.</i> AUDITORLIK XULOSASINING TURLARI: XALQARO AMALIYOT	347
<i>И.Р. Авазов.</i> ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ВА КОНСОЛИДАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНИ	350
<i>Г.Я. Бабаева.</i> ЦЕЛЬ И ИНФОРМАЦИОННАЯ БАЗА АУДИТА КРЕДИТНЫХ ОПЕРАЦИЙ БАНКА	353
<i>С.А. Джуманов.</i> МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТ АХБОРОТЛАРИНИ КОМПИЛЯЦИЯ ҚИЛИШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ	355
<i>О.Қ. Қўшиматов.</i> АУДИТОР ИШИ СИФАТИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	357

“БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ВА АУДИТОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ”

Мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани

Тошкент 2021 йил, 21 май

Муҳаррир

Э.Хуснитдинова

Ш.Базарова

Компьютерда саҳифаловчи-дизайнер

К.Бойхўжаев

Нашр лист. А1¹ 350. Босишга рухсат этилди 25.05.2021.

Бичими 84x108/16. Offset қоғози №2.

«New Times Roman» гарнитураси.

Шартли б.т. 48,5. Нашр ҳисоб т. 50,6

Адади 200 дона. 25-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» нашриётида тайёрланди.

100000, Тошкент, Амир Темура кўчаси, 60^а.

«DAVR MATBUOT SAVDO» МЧЖ

босмахонасида офсет усулида чоп этилди.

100198, Тошкент, Қўйлик, 4-мавзе, 46.

